

SAYYODIYNING “TOHIR VA ZUHRO” DOSTONIDA FOLKLOR AN’ANALARI

*Sirdaryo viloyati “Nurli maskan” maktab-internatining ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
Balikova Nigora Norbekovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Sayyodiyning “Tohir va Zuhro” dostonida folklor an’analari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, folklorning yozma adabiyotdagi o‘rni va ta’siri masalasi hamda “Tohir va Zuhro” dostoni kompozitsiyasiga singdirilgan badiiylik unsurlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zla: doston, sujet, etnos, mifologiya, qo‘lyozma matn, matnshunos, badiiylik va poetika tushunchalari, yozma adabiyot va folklorda o‘zaro ta’sir.

Abstract: In three articles, the representative of the Uzbek classical literature, Sayyodi’s epic ‘Tahir va Zuhro’, focuses on folklore traditions, unique features of the document, issues of the place and influence of folklore in written literature, as well as artistic materials embedded in the composition of the epic ‘Tahir va Zuhro’. analyzed.

Keywords: interaction in epic, subject, ethnos, mythology, manuscript text, textualist, artistic and poetic images, written literature and folklore.

“Tohir va Zuhra” dostoni o‘zbek xalqining sevimli dostonlaridan biri bo‘lganligi sababli uni xalqimiz gap-gashtak va turli tadbirlarida doimiy tinglagan. Gap shundaki, aslida og‘zaki ijod namunasi hisoblangan ushbu doston Sayyodiy tomonidan yozma tarzda qaayta ishlangan. Mazkur “Tohir va Zuhra” yozma dostonining muallifi Sayyodiy hayoti va shaxsiyatiga doir ma’lumot beruvchi yagona manba – uning “Tohir va Zuhra” dostoni xolos.

Hozirgacha ham adabiyotshunoslik va folklorshunoslikda shoir hayoti va ijodining ayrim nuqtalari haqida turli bahsli fikrlar mavjud. Shoirning asl ismi Sayyid Muhammad Qilich bo‘lib, Balx yaqinidagi Xayrobod degan joyda tug‘ilib o‘sgan va keyinchalik ovchilik bilan shug‘ullangan. Dostonning qachon yozilganligi to‘g‘risida o‘zbek olimlari o‘rtasida ham yakdillik yo‘q. Adabiyotshunoslar N.Jumaxo‘ja, I. Adizova Sayyodiy XVII-XVIII asrlarda yashaganligini qayd etadi. Lekin uning qaysi yilda tug‘ilgani va vafot etgani haqida

aniq dalillar mavjud emas. Sayyodiy dostoni baqar (sigir) yilida yozila boshlangan, nahang (baliq) yilida tugallangan. Shoirning yozishicha, Tohir va Zuhra haqidagi sujet O'rta va Yaqin sharqda o'sha vaqtlarda ham juda keng tarqalgan bo'lib, xalq orasida ertak qilib aytib yurilgan, soz jo'rligida esa yigitlar kuylagan.

“Tohir va Zuhro” mavzusi o'zbek adabiyoti uchun ham begona emas. Ayniqsa, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari orasida bu syujet bilan bog'liq ko'pgina asarlar uchraydi. ... Bu mavzuni o'zbek yozma adabiyotiga shoir Sayyodiy olib kirdi. U o'zining “Tohir va Zuhro” dostoni bilan xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot aloqalarini yanada mustahkamladi, mashhur syujetni badiiy jihatdan qayta ishlab, uni ijodiy boyitdi. Darhaqiqat, dostonning g'oyaviy dunyosi, obrazlar olami, syujeti va kompozitsiyasi “Tohir va Zuhro” nomli o'zbek xalq ertagiga hamohangligi bilan ajralib turadi”, – deydi adabiyotshunos olim M.Mamatqulov.

Albatta, Sayyodiyning “Tohir va Zuhro” dostoni o'zbek xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi bo'lib, an'anaviy og'zaki hikoyachilik an'alarida chuqur ildiz otgan. Mazkur doston boblarga ajratilmagan. Nasr va nazm aralash holda keladi. Unda turli millatga mansub ikki yosh Tohir va Zuhro o'rtasidagi muhabbat tarixi tasvirlangan.

Doston turli folklor an'alarining bir qancha jihatlarini o'zida mujassam etgan, jumladan:

1. *Og'zaki rivoyat*: “Tohir va Zuhro” asosan og'zaki hikoya orqali yetkaziladi, hikoyachilar dostonni avloddan-avlodga o'tkazib keladi. Bu og'zaki an'ana improvizatsiya va moslashish imkonini beradi, hikoyaning boyligini oshiradi.

2. *Qahramonlik mavzulari*: Dostonda ko'pincha jasorat, qurbonlik va sadoqat kabi qahramonlik mavzulari yoritilgan. Tohirning Zuhro mehrini qozonishi turli qiyinchilik va to'siqlarni yengib o'tish, badiiy obrazlarning qahramonlik fazilatlarini namoyon etishni o'z ichiga oladi.

3. *Ramza va allegoriya*: Sayyodiy dostonida chuqur ma'nolarni ifodalash uchun ko'pincha timsol va allegoriya qo'llaniladi. Qahramonlar va voqealar rivoyatga talqin qatlamlarini qo'shib, kengroq ijtimoiy yoki axloqiy tushunchalarni ifodalashi mumkin.



4. *Musiqiy va she'riyat*: “Tohir va Zuhro” o‘zining she’riy tili va musiqaliligi bilan mashhur. Doston ko‘pincha ohangdor tarzda aytiladi yoki kuylanadi, dutor yoki doira kabi an’anaviy cholg‘u asboblari jo‘rligida hikoyaning hissiy ta’siri kuchayadi.

5. *Madaniy qadriyatlar*: Dostonda o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlari, jumladan, kichiklarga izzat, kattalarga hurmat, oila rishtalarining ahamiyati o‘z ifodasini topgan. Unda mintaqaning an’anaviy ijtimoiy tuzimi va urf-odatlarini haqida ma’lumot berilgan.

Xullas, “Tohir va Zuhro” o‘zbek xalq og‘zaki ijodida mashhur dostonidir. Uni Sayyodiy yozma dostoniga aylantirib, millatning madaniy merosini yana bir pog‘ona yuksaltirdi. Muallifning “Tohir va Zuhro” dostoni o‘zining jonli obrazlari, jozibali hikoyasi bilan kitobxonlarni maftun etib kelmoqda. Mazkur badiiy asarni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishda folklore an’analari o‘rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar,

1. “Тоҳир ва Зухра” (достон) // Ошиқнома: Хоразм достонлари. – Урганч: “Хоразм” нашриёти, 2011.
2. “Тоҳир ва Зухра” (достон). Айтувчи: Қора бахши Умиров. Ёзиб олиб, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи А.Эргашев. – Қарши: Насаф, 2014.
3. Jumaxo‘ja N, Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XIX asaring birinchi yarmi). O‘quv qo‘llanma. – T., Innovatsion ziyo, 2020.
4. Mamatqulov M.M. XVII–XVIII asrlar o‘zbek adabiyotida folklor an’analari va poetika masalalari: Filol. fan. dok (DSc). diss. ... – Guliston, 2021. – 268 b.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliev M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr. 2010. – 400 b.
6. Sayyodiy. Tohir va Zuhro (nashrga tayyorlovchi: M.Mamatqulov). –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.